

**Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakul'teti Oliy matematika
kafedrasining 2025 yil 28 fevraldagi o'tkazilgan yig'ilishi**

№ 7 - sonli bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Qatnashdilar: Oliy matematika kafedrası professor-o'qituvchilari va boshqa kafedra o'qituvchilari jami 16 nafar

1. Kafedra dotsenti M.Sobirovaning 2025yil 8fevralda o'tkazgan 2(ikki) soatlik "Maktabda transcendent ifodalarni ayniy almashtirishlarni o'rgatish metodikasi" ochiq ma'ruzasi muhokamasi to'g'risida.

ESHITILDI: Yig'ilishni Oliy matematika kafedrası dotsenti **f.m.f.n. I.Abiraev** kirish so'zi bilan ochib, kafedra katta o'qituvchisi M.Sobirovaning o'tkazilgan ochiq ma'ruza mashg'ulot darsida qatnashgan barcha professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi. Yig'ilish qatnashchilari ochiq ma'ruza dars uchun tayinlangan taqrizchilar va ular tomonidan berilgan tashqi va ichki taqrizlar bilan tanishtirib o'tdi. Ochiq ma'ruza darsda fakul'tetning 5-nafar professor-o'qituvchilari 4-nafar magistrantlar hamda Oltinsoy tumanidagi 34-son maktab matematika o'qituvchilari ishtirok etganligini ta'kidlab ularga fikr-mulohazalarni bildirish uchun so'z berdi.

dos. I.Abiraev so'zi ("Oliy matematika" kafedrası dotsenti): - Matematika o'qitish me'todikasi fanidan "Maktabda transcendent ifodalarni ayniy almashtirishlarni o'rgatish metodikasi" mavzusidagi 2 (ikki) soatlik ochiq ma'ruza darsining yutuqlari albatta ko'p, o'qituvchining darsga tayyorgarligi ko'rinib turibdi. Men yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda, shuni ta'kidlaymanki bu fanni o'tishda katta o'qituvchi M.Sobirovaning dars o'tish mahorati talabga javob beradi. O'qituvchining nutq madaniyati, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi yaxshi, darsning reglamenti to'g'ri taqsimlandi, talabalarga savollar berish orqali auditoriyani muloqatga keltirdi. Darsning ikkinchi rejasidan boshlab o'qituvchi so'z ohangini, mimikalarini juda yaxshi olib bordi. O'tilgan darsni namunali deb baholayman.

dos. X.Xafizov : - ochiq ma'ruza mashg'ulot darsini dotsent M Sobirova tomonidan tashkil qilinishi menga juda yoqdi. O'qituvchining bilim darajasi etarli ekanligi sezilib turibdi. Darsda o'zini tutishi, talabalar bilan savol-javob tarzida dars o'tish uslubidan foydalanishi hozirgi yangi pedagogik texnologiya elementlarini qo'llayotganligidan dalolat berib turibdi. So'z nutqi ravon va juda sodda bo'lishi bilan aytilayotgan fikrlar talabalarga etib bormoqda. O'qituvchi darsdan ko'zlangan maqsadga erisha oldi deb o'ylayman va namunali deb baholayman.

Shundan sung magistr talabalarga so'z berildi.Ular o'z so'zlarida Oliy matematika kafedrası dotsenti M.Sobirova tomonidan Matematika o'qitish metodikasi fanidan o'tkazilgan

ma'ruza mashg'ulot darsi kelgusida ularga ўрганиш учун намунали дарс бўлганлигини айтиб ўтишди

Shundan so'ng ochiq ma'ruza mashg'ulot o'tgan o'qituvchi доцент M.Sobirovaga so'z berildi. O'qituvchi ochiq ma'ruza mashg'ulot darsida ishtirok etgan professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi va muhokamada ishtirok etgan professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni keyingi pedagoglik faoliyatida albatta e'tiborga olishini ta'kidladi. Бундан ташқари ҳар ҳафтанинг шанба кунда бир ой давомида бемалол хохловчилар дарсларга келиб қатнашишлари мумкинлигини айтди

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish qaror qiladi:

1. Professor-o'qituvchilar tomonidan ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar axborot uchun qabul qilinsin.
2. Oliy matematika kafedrası katta o'qituvchisi M.R.Sobirovaning o'tgan ochiq ma'ruza darsi namunali deb baholansin.

Yig'ilish raisi:

Kotib:



M.Sobirova

E. Eshtemirov